

20-May, 2025-yil

**ODAM TASHQI QIYOFASINING BELGILARI VA UNI O’ZIGA XOS
XUSUSIYATLARINI O’RGANISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH**

Tojiyev Alibek Ozod o’g’li

O’zbekisto Respublikasi IV

Akademiyasi 3-o’quv kursi 329-guruh kursanti

<https://akadmvd.uz/>

Axmakov Shohruh Shuhrat o‘g’li

Kriminalistik ekspertizalar kafedrasi katta o‘qituvchisi kapitan

Annotatsiya: Maqolada odam tashqi qiyofasi belgilari orqali uning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish, jinoyat sodir etib kameraga tushgan shaxslarni yuzi ko’rinmagan xollarda uni yurish turishi, jestikulatsiyasi orqali shaxsiga oydinlik kiritish amaliyotini rivojlanadirish va jinoyatchilikni ochishdagi axamiyati yoritilgan.

Tayanch so’zlar: shaxsni qiyoslash, anatomik belgilar, funksional belgilar, antropologiya, gabitalogiya .

Аннотация. В статье изучаются особенности человека по признакам его внешности, развивается практика выяснения личности человека, уличенного при совершении преступления, когда его лица не видно, а также развитие практики выяснения его личности посредством жестикуляции, подчеркнута важность раскрытия преступления.

Ключевые слова: сравнение личности, анатомические признаки, функциональные признаки, антропология, габитология.

Annotation. In the article, the study of the characteristics of a person through the signs of his appearance, the development of the practice of clarifying the personality of the person who was caught committing a crime when his face is not visible, and the development of the practice of clarifying his personality through gesticulation, and the importance of solving the crime are highlighted.

Key words: personality comparison, anatomical signs, functional signs, anthropology, habitatology.

KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizda sodir etilayotgan jinoyatlarning juda ko’pi shaxsni yuzini identifikasiya qilish orqali aniqlanib kelmoqda. Ammo hozirgi kunda jinoyat va huquqbazarlik sodir etayotgan shaxslar yuzlariga turli hildagi niqoblar [maskalar] taqib olgan taqdirda ularning yuzini identifikasiya qilish imkoniyati yo’qolib qolmoqda. Bunday hollarda uning tashqi qiyofasi orqali yurish turishi, harakatlari, jestikulatsiyasi orqali aniqlash imkoniyati paydo buladi. Bu sohada mamlakatimizda sud tergov amaliyoti

20-May, 2025-yil

rivojlanmagan va aynan manashu sohani ham rivojlantirish zarur hisoblanadi. Bunda gabitalogiya tadqiqotini amalga oshirish zarur.

ASOSIY QISM

Odam tashqi qiyofa belgilarini va o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish hozirgi kunda juda muhim hisoblanadi. Bu amaliyat tarixdan ham bir qancha olimlar tomonidan uganib chiqilgan. Bulardan M.V.Saltevskiy tomonidan tashqi qiyofaning xususiy yoki gabitalogik belgilarini o’rganish amaliyotini rivojlantiradi . Bu belgilar tananing va uning ayrim a’zolarining , odamni yurish-turishi jestikulatsiyasi , artikulyatsiyasi va ularning elementlarini anatomik tuzilishini xususiyatlarini ifodalaydi.

“Gabitologiya ” atamasi lotincha “habitus” va grekcha “logos” so’zlaridan olingan bo’lib – tashqi qiyofa va tushuncha bilim ma’nolarini anglatadi.

1973- yilda V.A.Snetkov odam tashqi qiyofasi to’g’risida bir qancha ma’lumotlar keltiradi. M.V.Saltevskiy ning fikricha esa odam tshqi qiyofa belgilariga gabitoskopik belgilardan tashqari daktiloskopik, dentaskopik va dermoskopik belgilarni ham kiritishni taklif etadi. Miloddan avvalgi III-IV-asrlarda qadimgi Misrda odam tashqi qiyofa belgilarini o’rganish insonlarning jestlar bir biriga o’xshamaydigan belgilar mavjudligini o’rganish amaliyoti shakllangan va bu amaliyot “Kulay-Pulay” deb nomlangan tizimi mavjud bulganligi haqida qator manbalarda ma’lumot keltirib o’tilgan . XIX-asrda ham kriminalistik olim Alfons Bertiliyon tomonidan odam tashqi qiyofa belgilarini o’rganish buyicha bir qancha metodikalar ishlab chiqadi .

Odam tashqi qiyofa belgilarini quyidagicha o’ziga xos xususiyatlar o’rganiladi.

- Umumfizik {jinsi, yoshi, bo’yi, gavda tuzilishi}
- Demografik {irqi , millati, xalqi}

Shaxsiy belgilari esa quydagilarga bulinadi

- Anatomik – odam qiyofasi , odam tanasining tuzilishi umumiyl va alohida qismlar bo’yicha {masalan bo’yi, gavda tuzilishi, kallasi, bosh suyagiga boshqalarni o’rganadi.

- Funksional-bu shunday belgilarki , unda odam hayoti faoliyati jarayonida odatdagи avtomatlashgan harakatlar , alohida qismlar va odam tanasining holati namoyon bo’ladi {masalan yurish turishining o’zigz xos xususiyatlari, jestikulatsiyasi , gavdasini ushlab turishi , nutqi , imo-ishorasi , yuz mushaklarining harakati va boshqa harakatlarni o’z ichiga oladi.

- Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurash borasida qator chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda . Buning natijasida Toshkent shahar hamda viloyat markazlarida jinoyatchilikka qarshi kurash bo’yicha asosiy chorallardan bir bu savdo shoxobchalarida , bozorlarda , umumiyl qilib aytadigan bulsak jamoat joylarida video kamera vositalarini ko’paytirish asosiy chorallardan biri hisoblanadi . Buning natijasida har qanday huquqbazarlik sodir etgan shaxslarni yuzi orqali identifikasiya qilib shaxsiga aniqlik kiritilib kelmoqda ammo shaxsning yuzi uncha yaxshi ko’rinmasa yoki yuziga niqob [maska] taqib olgan holatlarda uning yuzi orqali identifikasiya qilish shaxsiga oydinlik kiritish imkoniy yuqolib qolishi natijasida bir qator jinoyatlar huquqbazarliklar ochilmay qolayotganlik holatlari ham uchrab turibdi. Bu turdagи ochilmay qolayotgan jinoyat va

20-May, 2025-yil

huquqbuzarliklarni ham ochish maqsadida bu amaliyotni rivojlantirish zarur hisoblanadi . Yuzi ko’rinmagan xollarda ham uning sochining rangi, bo’yi, qul harakatlari , boshini qimirlashlari, oyoq bosishlari ,uning bukrilik darajasi, o’rtacha qul uzunligi , o’rtacha oyoq uzunligi ni o’rganish natijasida har qanday gumonlanuvchi shaxsni o’rganib eksperiment natijasida yurishlarini ko’rish yoki ma’lum masofadagi kamerada shu keltirib utilgan belgilarga ega shaxsni o’rganib shaxsni yunalishlarini , uning agarda keyingi kameralarda yuzini identifikasiya qilish imkonи paydo bo’lganda uning yuzi orqali shaxshini aniqlashi mumkin . Shuning uchun odam tashqi qiyofasini o’rganish amaliyoti juda muhim hisoblanadi. Bu amaliyotni rivojlantirish natijasida jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga juda katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak odam tashqi qiyofa belgilarini o’rganish amaliyoti juda qadimdan boshlanib qadimgi sharqda , g’arbiy yevropa va misrda bu sohadagi olimlar juda katta hissasini qo’shdi, ammo hozirgi kunda bu sohaga e’tibor ancha susayganligini ko’rishimiz mumkin. Sud tergov amaliyotida jinoyatchilikka qarshi kurashishda odam tashqi ko’rinishiga e’tibor berilmay quydi . Bu sohaga e’tibor qaratilishi natijasida jinoyatchi shaxslarni aniqlash, jinoyatlarni issiq izidan ochishga o’zini katta hissasini qo’shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. A.D.Xusanov, Kriminalistika [chizmali albom].2005.23-29 betlar
2. Kriminalistika {darslik}. 2015
3. S.A. PORTRET EKSPERTIZASINING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI ;{o’quv qo’llanma}2017-yil
4. Nurumbetova: “PORTRET EKSPERTIZASI” ma’ruzalar kursi darslik. –Toshkent-2020;